

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

“TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA SHAXS
KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy-
online konferensiya

MATERIALLARI



**Jizzax
2023**

G'.M.Dehqonova O.A.Abduvaliyeva F.A.Safarova	O'qitishda imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuvi masalasiga doir.	126
Sh.X.Kobilova F.A.Safarova, M.B.Boboxonova M.Z.Maxkamova	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda ijtimoiy tajribani egallashini pedagogik yondashuvlari.	129
D.I.To'rayeva	Ta'limni raqamlashtirish asosida bo'lajak o'qituvchilarkasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	134
Sh.Daminova	Badiiy adabiyot ma'naviy, axloqiy tarbiya mezoni sifatida	137
M.B.Xaydarova	Boshlang'ich sinflarda sifatli ta'limni tashkil etishda tadbirkorlikning tashkiliy shakllaridan foydalanish	140
Sh.X.Xaydarov	O'smirlar psixologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	146
G.X.Temurova Sh. Isarova	O'quvchi shaxsining kasbga yo'nalganligini shakllantirish	150
A.R.Raxmonov X.G'.Eshmatova	Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda pedagogik metodlarni qo'llash imkoniyati	157
M. X.Xolnazarova, Ya.Qarshiyeva	Ahmad Yassaviy hikmatlarining psixologik tahlili.	161
D. R. Farsaxonova M. Abduraimova	Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish jarayonida qo'llaniladigan metodlar	168
N.Ya. Qurbonov	Ta'lim sifatini oshirish jarayonida pedagogik texnologiyaning ahamiyati	171
D. Лапасова	Таълим тизимида педагогик дастурий воситалардан фойдаланиш	174
P.Q.Xolmatov. A.Jabborov	Texnologiya fanini oqitishda innovatsiyalardan foydalanish va ularni joriy qilish yo'llari	177
A.Jabborov	O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini takomillashtirish	183
D. Tursunova	Shaxs psixologiyasida ehtiyoj va manfaatlar birligi	185
Z. Haydarova	Qissa janri genezisi haqida	191

ishlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduquddusov O.A. Kasbiy ta'lim va ilg'or texnologiyalar // J. Xalq ta'limi. –2000 y. -№5. - B. 29–33.
2. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005 y. – 160 b.
3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. Toshkent. 2009. -131 bet.
4. Abduquddusov O.A. Kasbiy ta'limda asosiy o'quv materialini o'rganish texnologiyasi // “O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari” resp. il.-amaliy konf. materiallari. –T., 2006. –B. 7-8.

DEHQONOVA MUBOROK G 'IYOSIDDINOVNA
ChDPU Maxsus pedagogika
kafedrası o'qituvchisi.
ABDUVALIYEVA OZODA ABDULLA QIZI
SAFAROVA FERANGIZ ASROR QIZI
CHDPU III-kurs talabasi

O'QITISHDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR IJTIMOIIY MOSLASHUVI MASALASIGA DOIR.

Annatatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim sharoitida o'qitish imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuv-imkoniyati cheklangan bola tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashlashtirish jarayoni haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy moslashuv, imkoniyati cheklangan, inklyuziv ta'lim, individual, mexanizm.

Umumta'lim sharoitida o'qitishda imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuvi bolalarda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizmdir. Bu - shaxsning atrof muhitda sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida insondagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir. Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq -atvorda bevosita

namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq-atvorning sababi uning motividir . Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq-atvorining motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganadi. Umumta'lim sharoitida o'qitishda imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuvga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya'ni "jonlanadi" . Masalan, ba'zi bir etnik stereotiplar ana shunday xotira obrzlaridandir. Ijtimoiy normalar, ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z- o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi. Demak, umumta'lim sharoitida o'qitish imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuv-imkoniyati cheklangan bola tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv-imkoniyati cheklangan bolaning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir.

Umumta'lim muassasalari sharoitida maxsus ehtiyojli bolalarga ta'lim tarbiya berishning o'zigina samarali natija bermaydi. Buning uchun maktabda pedagoglar, defektologlar, psixologlar tomonidan do'stona munosabat muhitini yaratish lozim. Sinfda do'stona munosabat muhitining shakllanishi sog'lom va maxsus ehtiyojli bolalarning bir birlariga nisbatan mehr - muhabbatli bo'lishlariga , bir birlariga doimo yordam berishlariga zamin yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning o'z - o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bu esa korreksion - pedagogik ishni samarali va osonroq kechishini ta'minlaydi. Biz quyida do'stona munosabat muhitini yaratishga yordam beradigan o'yin usulini ko'rsatib

o'tamiz: " Soyalar " o'yini.

O'yindan ko'zlangan maqsad: bolalar o'rtasida do'stona munosabat ruhini shakllantirish.

O'yin jihozlari: kattaroq hajmdagi oq qog'oz, flamaster.

O'yinning borishi: Bolalar kichik guruhlarda ishlagan holda bir birlarining soyalarini aniqlaydilar. Bu faoliyat odamning katta qog'oz yonida turganda, uning atrofidan qalam yordamida chizish orqali bajarilishi mumkin. Shundan so'ng turli rangdagi qog'ozlarga tushirilgan soyalar qirqib olinadi va egalarining ismlari yozib qo'yilib, bolalarga bu kimning "soyasi" ekanligi aytiladi.

Birinchi usul: har bir bola devorlarga osib qo'yilgan soyalar atrofida yurib, ularning har biriga ijobiy gaplarni tarbiyachi yordamida yozadilar. Albatta, o'zining soyasi bundan mustasno.

Ikkinchi usul: har kuni bitta soyani osish va bolalar bu soya haqida ijobiy fikrlarni bildirishidir. Soyalar ustiga maxsus sovrin yoki sertifikatlar yopishtirish mumkin. " Soyalar" o'yinning yana bir turi " **Mening aqlim**" deb ataladi. Bolalar juft bilan holda bir birlarining boshlarining rasmini chizadilar. Bir birlarining fikrlarini (qiziqishlari, orzulari) so'ragandan ancha ular har bir rasm uchun o'z fikrlarini bildirganlaridan ancha, hamma rasmlar yig'iladi va ular haqidagi fikrlarning farqi, umumiy tomonlari muhokama qilinadi. Bu o'yinni olib borishda tarbiyachi muntazam ravishda kuzatib turadi va boshqa bolalarga guruhdagi rivojlanishia orqada qolgan bolalarning " soyasi" ga ham ijobiy fikrlar yozilishini nazorat qiladi, rivojlanishda orqada qolgan bolaning ham faol ishtirok etishiga ko'maklashishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Косякова о. о. логопсихология : учебное пособие/ ольга олеговна косякова, ростов - на - дону : феникс. 2007, 284 с.

2. Коробейников и. а. нарушения развития и социальная адаптация. - м.: перисе, 2002 .

3. Морозова е. а. психологические аспекты к новым условиям воспитания детей раннего возраста с психофизическими нарушениями. дим. канд.психол. наук.- м.:1999.

4. Захаров а. и. предупреждение отклонений в поведении ребёнка. спб, 2000.

5. Dehqonova, m. (2023). the first stages of ensuring continuity in the elimination of speech defects of speech-impaired children. science and innovation, 2(b2), 55-58.

6. G'iyosiddinova, d. m. (2023). specific characteristics of logopedic work



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY MARKAZI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, TA'LIM TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI

SERTIFIKAT

G'.M.Dehqonova

“Sifatli ta'limni tashkil etishda shaxs kreativ potensialini oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida faol ishtiroki uchun

Pedagogika markazi direktori



A.Xolmurodov

15.11.2023 y